XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-15-130-8-115-K/25 Muzrabot tumani

Muzrabot tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash
Muzrabot tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 19-noyabrdagi 207/168-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Muzrabot tumani budjetining 2026-yilgi daromadlari **116,8 milliard.so‘m** va xarajatlari esa **116,8 milliard.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **0,0 milliard.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Muzrabot tumani budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **0,296 milliard.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz koʻrsatkichlari 1-ilovaga muvofiq, 2026-yil uchun Muzrabot tumani byudjetidan birinchi darajali byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlar 2-ilovaga muvofiq, Umumdavlat soliqlaridan Muzrabot tumani mahalliy byudjetiga ajratmalar me'yori 2026-yil uchun 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetlarining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq hamda 2025-yil uchun tuman mahalliy byudjetida yoʻl qoʻyiladigan eng kam mablagʻlar miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamgʻarmasi hajmi 2026-yil uchun **1,4 milliard.soʻm** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamgʻarmasi mablagʻlarini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib boʻlmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur boʻlgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yoʻnaltirilishi ta'minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari S.Xolniyozov, tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (Z.Muxammadiyev), tuman soliq inspeksiyasi (A.Rahmonqulov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini koʻrsin.

6. Hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablagʻlarining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni toʻliq rejalashtirilishi va oʻz vaqtida toʻlanishi;

oʻzlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining toʻgʻri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablagʻlarning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning toʻliq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablagʻlarning toʻgʻri taqsimlanishi;

oʻz tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (L.Musayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **MAMATQULOV ABDULLA ABDIMUMINOVICH**

Xalq deputatlari Muzrabot tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-130-8-115-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Muzrabot tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yilgi asosiy prognoz koʻrsatkichlari

ming soʻmda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**116 820 750,0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	44 690 100
2	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	850 000
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 787 000
4	Qoʻshilgan qiymat soligʻi	2 023 700
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	15 270 000
6	Qurilish materiallari boʻyicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	1 080 000
7	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 873 600
8	Foyda soligʻi mahalliy	2 049 600
9	Aylanmadan soliq	2 966 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	25 283 000
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi	8 263 000
12	Davlat boji mahalliy	1 309 750
13	Jarimalar	1 347 900
14	Yigʻimlar mahalliy	827 100
15	Davlat mulki boʻyicha ijara toʻlovlari	200 000

Xalq deputatlari Muzrabot tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-130-8-115-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Muzrabot tumani byudjetidan birinchi darajali byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarga ajratiladigan parametr ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming soʻmda

№	Koʻrsatkichlar	Miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**116 820 750,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	116 820 750,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga transfertlar	
1.	**Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limiga(umumiy ta'lim)**	**33 874 961,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	33 874 961,0
	shundan:	
	"Menning maktabim" jamg'armasiga	3 584 400,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
2.	**Madaniyat tizimi tashkilotlariga**	**1 755 170,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 755 170,0
	shundan:	
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
3.	**Bolalar musiqa va san'at maktablari**	**3 782 899,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 782 899,0
	ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
4.	**Sport bo'limiga**	**6 250 434,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 250 434,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
5.	**Zaxira jamgʻarmasiga**	**1 425 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 425 000,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
6.	**Fermer xoʻjaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining saqlash xarajatlari**	**618 734,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	618 734,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
7.	**Veterinariya va chorvachilik rivojlantirish boʻlimi tashkilotilari**	**2 205 279,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 205 279,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
8.	**Irrigatsiya tizimiga**	**3 038 512,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 038 512,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
9.	**Obodonlashtirish boshqarmasiga**	**17 401 581,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	17 401 581,0
	Ichki yoʻllarni saqlash xarajatlari uchun	4 400 000
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
10.	**"Mahalla byudjeti" jamgʻarmasi mablagʻlari**	**4 509 067,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 509 067,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
11.	**Yoshlar ishlar boʻlimi saqlash xarajatlari**	**3 084 118,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 084 118,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
12.	**Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi aqlash xarajatlari**	**1 846 072,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 846 072,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
13.	**Davlat boshqaruv hokimligi saqlash xarajatlari**	**12 277 032,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 277 032,0
	shundan:	
13.1	Investitsiyalar, sanoat va savdo boʻlimi saqlash xarajatlari	166 129,0
13.2	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi saqlash xarajatlari	1 041 749,0
13.3	Qurilish va uy-joy komunal xoʻjaligi boʻlimi saqlash xarajatlari	520 765,0
13.4	Oila va xotin-qizlar boʻlimi saqlash xarajatlari	1 950 841,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
14.	**Iqtisodiyot va moliya boʻlimi** saqlash xarajatlari	**2 553 926,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 553 926,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
15.	**Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari**	**30 237,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	30 237,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
16.	**Axborot kutubxona markazlarini saqlash xarajatlari**	**831 633,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	831 633,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
17.	**Hayvon kasalliklar tashxisi va oziq ovqat mahsulotlari xafsizligi markazilarining saqlash xarajatlari**	**513 646,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	513 646,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	
18.	**Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi (ochik byudjet partaliga)**	**18 793 080,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 793 080,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	

19.	**Ijtimoiy moslashuv markazlari**	**134 651,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	134 651,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qoʻyilmalar	

Xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-130-8-115-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Muzrabot tumani mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori 2026-yil uchun

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	Foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar	Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari
1	Muzrabot tumani	50	78	100	80	100	100	100	100	31	30	30	100	100	100	100

Izox: 1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 890, 3 450 891, 3 450 892 daromad kodi bo‘yicha) tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar budjetiga qoldiriladi.

3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliklar (mol-mulkni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i (Termiz shahardan tashqari) bundan mustasno), soliqsiz tushumlar xamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Muzrabot tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-130-8-115-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Muzrabot tumani mahalliy byudjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**116 820 750,0**	**116 820 750,0**
Muzrabot tuman	116 820 750,0	116 820 750,0

Xalq deputatlari Muzrabot tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-130-8-115-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Tuman mahalliy byudjetida yoʻl qoʻyiladigan eng kam mablagʻlar miqdori 2026-yil uchun

ming soʻmda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**296 250,0**
1	Muzrabot tumani	296 250,0